

RASMIY XATLARNING TARJIMA MASALALARI

Ulashmurodova Shahina Dilshodovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti, 2401- guruh talabasi

Yo'ldoshev U.R.

Ilmiy rahbar Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti dekani

Annotatsiya. Ushbu maqolada rasmiy xatlarning tarjima masalalari, xatlar tarjimasining metodologiyasi, undagi muammolar va ularni hal etish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: rasmiy xatlar, tarjima masalalari, metodologiya, til va madaniyat farqlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы перевода официальных писем, методология их перевода, возникающие проблемы и способы их решения.

Ключевые слова: официальные письма, вопросы перевода официальных писем, методология, языковые и культурные различия.

Annotation. This article analyzes the translation issues of formal letters, the methodology of letter translation, the challenges involved, and ways to resolve them.

Keywords: official letters, translation issues, methodology, language and cultural differences.

Rasmiy xatlar aniq va jiddiy muloqot shakli hisoblanib turli sohalarda katta ahamiyatga ega boan hujjat turi sanaladi. Bunday turdagi xatlar davlat, tashkilot yoki korxona, shuningdek shaxslar o'rtasidagi professional diplomatik muloqotlar, qolaversa, qonuniy va huquqiy maqsadlarda foydalaniladi. Rasmiy xatlar tarjima jarayonida faqatgina lingvistik qobiliyatning o'zi emas, huquqiy va madaniy jihatlarni bilish va ularni to'g'ri tatbiq eta olish ham talab qilinadi. Bu turdagi xatlarning uslub va shakllarini o'rganib, uni tushunish va xatlarning mazmunini to'g'ri va aniq, tushunarli kontekstda yoritib bera olish ham tarjimonning bilim va mahoratini yanada ochib beradi. Har bir davlat o'z madaniyati, an'analari va qonuniga ega va bu boshqa davlatlarnikidan ajralib turadi. Aynan shu sababli, tarjimon rasmiy xatarni to'g'ri tarjima qila olishi uchun til va madaniyatlararo farqlarni hisobga olgan holda, matnning tarjima tilidagi ekvivalentini aniq tanlay olishi kerak.

Rasmiy xatlar tarjimasining ahamiyati nimada? Bunday tarjimalar biznes, diplomatiya va huquq sohalarida, qolaversa yana ko'plab yo'nalishlardamuhim ahamiyat kasb etadi. Bunday turdagi xatlar aksariyat hollarda biznes, huquq va aloqalarni bog'lashda foydalanilib, shaxslar, kompaniyalar va davlatlar o'rtasida o'zaro muloqotni ta'minlaydi, aniqroq qilib aytganda, ular shaxslar o'rtasida ma'lumot almashish, talab va

shartlar qo'yish, shu bilan birgalikda savollarga javob berish hamda javob olish uchun foydalaniladi. Bunday xatlarning tarjimasi aniq va to'g'ri shaklda bo'lishi muhim qarorlar qabul qilinishi, yuridik hujjatlarning to'g'ri shaklda yuritilishi uchun asos hisoblanadi va bu xatlar tarjimasida yo'l qo'yilgan kichik bir xato ham biznesni inqirozga yuz tutishiga sabab bo'lishi, o'zaro sifatli va yaxshi aloqa hamda hamkorliklarni to'xtatib qo'yishi, yuridik holatlarda esa noxush vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sabab bunday xatlar tarjimasi katta mahorat, aniqlik, muqobil so'zlar va to'g'ri kontekstni talab qiladi.

Ingliz va o'zbek tilidagi rasmiy xatlar ma'lum bir jihatlarida farqqiladi. Misol uchun o'zbek tilidagi rasmiy xatlar ko'pincha uzunroq jumlar bilan ifodalanagan xushmuomalalik va rasmiylikni tashkil etsa, ingliz tilida bunday xatlar qisqa va aniq tarzda ifodalanadi. Ya'ni o'zbek tilida rasmiy xatlar ko'proq kengroq va izohlovchi so'zlar bilan ifodalanib, boshlanishi va oxirida qo'llaniladigan salomlashishga hamda yakunga oid iboralar ancha formal shaklda bo'ladi.

Ingliz tilida "Dear Mr. Smith" shaklida ifodalanagan jumla o'zbek tilida "Hurmatli janob Smit" shaklida o'z aksini topadi. Rasmiy xatlarni tarjima qilishda ko'plab strategiya va usullardan foydalaniladi, to'g'ridan-to'g'ri tarjima, ekspansiv tarjima va adaptatsiya usullari shular jumlasidandir. Bulardan to'g'ridan-to'g'ri tarjima aniq ifoda va terminlar, joy nomlari va raqamlarning tarjimasida foydalanilsa, ekspansiv tarjima usuli o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida kengaytirilgan izohlar berishda xizmat qiladi. Tarjima qilinayotgan matn tarjima tiliga aniq moslashishini ta'minlaydigan, hamda madaniy tafovutlarni hisobga olib tarjima matnini tarjima tiliga moslashtirish vazifasini bajaradigan usul esa adaptatsiya hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarida madaniy tafovutlar anchagina va bu tarjima jarayonida eng katta qiyinchiliklarni vujudga keltiradigan omil hisoblanadi. O'zbek tilidagi xatlar ko'proq xushmuomalalik bilan ifodalanagan, ammo rasmiy shaklda bo'lishi kerak. Ingliz tilida esa rasmiy xatlar aniq, qisqa va to'g'ri iboralar bilan ifodalanagan bo'lishi kerak.

Rasmiy xatlarning tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadigan yana bir omil bu terminologiya hisoblanadi. Bu xatlarda yuridik, biznesga oid, diplomatik va iqtisodiy terminlarning to'g'ri o'rinlarda ishlatilishi va aniq shaklda tarjima qilinishi juda muhim. Bunday terminlarni to'g'ri tarjima qilish tarjimondan alohida mahorat va rasmiy sohalarga oid bo'lgan maxsus bilimlarni talab etadi. Masalan, yuridik hujjatlarni tarjima qilish uchun maxsus terminlar, xususan huquqiy izohlardan foydalaniladi. Bu kabi hujjatlarni tarjima qilishda har bir so'z va terminning ma'nosini to'g'ri tushunib, aniq tarjima qilish muhim, chunki noto'g'ri tarjima huquqiy xatoliklar yoki tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. "Liability", "rights", "obligations" kabi so'zlar yuridik terminlar qatoriga kiradi.

Rasmiy xatlarni tarjima qilish jarayonida nafaqat lingvistika, balki kontekst ham juda katta o'rin tutadi, tarjimon biinchi navbatda xatning ma'no-mazmunini aniq tushinib olishi, uning kimga yo'naltirilgani, xat qanday muhitda foydalanish uchun yozilgani, nima maqsadda ekanini aniq bilishi kerak. Bu kabi asosiy omillarni yoddan chiqarmagan

holda tarjima qilingan rasmiy xatning mazmuni to'liq saqlab qolinadi, undagi xatoliklar kamayadi va xat foydalanilishi kerak bo'lgan joyda to'g'ri maqsadda foydalaniladi.

Rasmiy xatlarning tarjimasi har doim aniq tarjimani bera olish uchun maxsus e'tibor va mahoratni talab etadi. Shu sababli, rasmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilish uchun yollangan tarjimonga tarjima jarayonidagi asl matn va tarjima matning har ikkala tilini mukammal bilishi, bu tillarning madaniy tafovutlarni farqlay olishi uchun madaniyatlarni chuqur o'rgangan bo'lishi, matnning mazmuni va maqsadini aniq tushinishi, rasmiy sohalardagi terminologiyalarni yaxshi bilishi, to'g'ri tarjima usulini tanlay olishni bilishi kabi bir qancha talablar qo'yiladi. Bu esa tarjimondan chuqur bilim, tajriba va tarjima mahoratini talab etadi. Chunki har qnday kichik xatolik ham professional nuqtai nazardan jiddiy oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Susan Bassnet - Translation studies.
2. I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qambarov – Tarjima nazariyasi
3. V. N. Komissarov - Современное переводени
4. Musayev Q. - Tarjima nazariyasi asoslari
5. U. R. Yo'ldoshev – Tarjima nazariyasi-o'quv qo'llanma

